

**JPHDA DALILLARNI TO'PLASH VA TERGOV HARAKATLARINING  
EVOLYUTSIYASI: TARIXIYLIK DAN RAQAMLI ISLOHOTLARGACHA****Mirzayeva Yasmina Xatamjon qizi**

Farg'ona yuridik texnikumi

“Davlat-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 2-bosqich 40-24-guruh o‘quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21821516>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jinoyat-protsessual huquqida dalillarni to‘plash va tergov harakatlarini o‘tkazish usullarining tarixiylikdan zamonaviylikka qadar bo‘lgan evolyutsion rivojlanish yo‘li tadqiq etilgan. Qadimgi dunyodagi ibtidoiy va jismoniy tazyiqlarga asoslangan usullar, Amir Temur davridagi axborotni qayta tekshirish prinsiplari hamda amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan fundamental tergov harakatlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada axborot asrida sud-tergov tizimida amalga oshirilgan raqamli islohotlar, kiberforensika, raqamli dalillar instituti hamda videokonferensaloqa rejimida masofaviy tergov harakatlarini o‘tkazishning o‘ziga xos protsessual xususiyatlari hayotiy misollar orqali yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** jinoyat protsessi, tergov harakati, raqamli dalil, so‘roq qilish, yuzlashtirish, ekskumatsiya, kiberforensika, videokonferensaloqa, Temur tuzuklari.

**ЭВОЛЮЦИЯ СОБИРАНИЯ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ И СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ В  
УПК: ОТ ИСТОРИИ К ЦИФРОВЫМ РЕФОРМАМ.**

**Аннотация.** В данной статье исследуется эволюционный путь развития методов сбора доказательств и проведения следственных действий в уголовно-процессуальном праве от древности до современности. Проведен сравнительный анализ первобытных методов физического воздействия в древнем мире, принципов перепроверки информации в эпоху Амира Темура и фундаментальных следственных действий, закрепленных в действующем Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан. Также в статье на практических примерах освещаются цифровые реформы в судебно-следственной системе в информационную эпоху, особенности киберефореистики, института цифровых доказательств и проведения дистанционных следственных действий в режиме видеоконференцсвязи.

**Ключевые слова:** уголовный процесс, следственное действие, цифровое доказательство, допрос, очная ставка, эксгумация, киберефореистика, видеоконференцсвязь, Уложения Темура.

**THE EVOLUTION OF EVIDENCE COLLECTION AND INVESTIGATIVE ACTIONS  
IN CRIMINAL PROCEDURE: FROM HISTORY TO DIGITAL REFORMS.**

**Abstract.** This article examines the evolutionary path of development of evidence collection methods and investigative actions in criminal procedural law from antiquity to the modern era. A comparative analysis is conducted between primitive physical methods of the ancient world, the principles of information verification during the reign of Amir Temur, and the fundamental investigative actions established in the current Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. Furthermore, the article highlights the digital reforms in the judicial and investigative system in the information age, focusing on cyberforensics, the institution of digital evidence, and the specific procedural features of conducting remote investigative actions via videoconferencing using practical examples.

**Keywords:** criminal procedure, investigative action, digital evidence, interrogation, confrontation, exhumation, cyberforensics, videoconferencing, Tamerlane's Institutes.

Insoniyat tarixi davomida adolatni qaror toptirish va haqiqatni aniqlash usullari jamiyatning madaniy, huquqiy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga qarab o'zgarib borgan. Jinoyat-protsessual huquqining eng muhim ustunlaridan biri bo'lgan dalillar nazariyasi qadimgi davrlardagi diniy mifologik qarashlardan bugungi kunning qat'iy qonuniy va ilmiy prinsiplarigacha bo'lgan uzoq va murakkab evolyutsion yo'lni bosib o'tdi.

Qadimgi dunyoda sudlov jarayonida **eng asosiy dalil odamlarning ko'rsatmasi** bo'lgan.

U davrda ikki guvohning so'zi haqiqat tamoyili sifatida ustuvorlik kasb etgan. Agarda moddiy yoki ashyoviy dalillar yetishmasa, gumondor olovdan o'tkazilgan yoki suvga tashlangan (bular huquq tarixida ordaliyalar, ya'ni "Ilohiy sud" deb ataladi). Agar shaxs omon qolsa, "Xudo uni asradi, demak, u aybsiz" deb hisoblangan. Bundan tashqari, Xudo nomiga ichilgan diniy qasamyod eng kuchli huquqiy dalillardan biri sanalgan.

O'rta asrlarga kelib, asosan G'arbiy Yevropada inkvizitsiya ta'siri ostida aybdorning o'z aybiga iqrar bo'lishi eng oliy dalil (lotinchada *Regina probationum* — "dalillarning qiroli") deb topildi. Ushbu mutlaq iqrarlikka erishish uchun sud va tergov jarayonlarida tizimli va shafqatsiz qiynoqlar qonuniy ravishda qo'llanilgan.

Qadimgi dunyodagi diniy ordaliyalar va Yevropa O'rta asrlaridagi shafqatsiz qiynoqlardan farqli o'laroq, XIV–XV asrlarda Amir Temur davlatida dalillarni to'plash va tekshirishda axborotning ishonchliligi, tuhmatdan himoyalanih hamda hujjatli nazorat (auditorlik) kabi ancha progressiv prinsiplarga tayanilgan.

Masalan, saltanatning har bir viloyati, qo'shini va bozorlariga maxfiy xabarchilar, ya'ni xufyalar qo'yilgan. Ular odamlarning gap-so'zlari va amaldorlarning xatti-harakatlarini kuzatib, barcha ma'lumotlarni yozma ravishda to'g'ridan-to'g'ri Amir Temurga yetkazishgan. Agar xufyalardan biror noqonuniy ish yoki xiyonat haqida xabar (dalil) kelsa, Temur darhol jazo bermay, boshqa mustaqil odamlar orqali bu ma'lumotning to'g'riligini qat'iy aniqlashtirgan. Eng muhimi, ayblanayotgan shaxsga kim uni ayblayotganini bilish va o'zini himoya qilish huquqi berilgan. Guvohlar esa yopiq xonalarda emas, ochiq sud jarayonida ko'rsatma berishgan.

Bugungi kunda demokratik jamiyatlarda jinoyat protsessida dalillarni to'plash va ulardan foydalanish masalasi inson huquqlarini himoya qilish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.

Yangi tahrirdagi **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga** ko'ra, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Bu O'rta asrlardagi "shafqatsiz iqrarlik" tizimini butunlay inkor etadi.

Bundan tashqari, **Konstitutsiyamizning 28-moddasi** hamda **Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) 23-moddasida** "Aybsizlik prezumtsiyasi" mustahkamlangan. Unga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Agarda shaxs sukut saqlasa, bu uning aybini bo'yniga olishi deb baholanmaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'z ayblovlarini boshqa ishonchli va aniq ob'yektiv dalillarga tayanib isbotlashga majburlarlar. Bu borada xalqaro tajribaga nazar tashlasak, 1966-yilda AQSHning Arizona shtatida **Ernesto Miranda** ismli shaxs ishi huquqshunoslikda burilish yasagan. Unga o'z protsessual huquqlari tushuntirilmagani oqibatida u o'ziga qarshi ko'rsatma bergan va qamoqqa olingan. Keyinchalik AQSH Oliy sudi bu ko'rsatmani noqonuniy dalil deb topgan va shu tariqa dunyoga mashhur **"Miranda qoidasi"** (shaxsni hibsga olishda uning huquqlarini eslatish) yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi **JPKning 81-moddasiga** ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga

molik boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlashga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar dalil hisoblanadi. Bugungi kunda har bir dalil uchta muhim mezonga javob berishi shart:

Dalil faqat ko'rilayotgan ish uchun ahamiyatli bo'lsagina qabul qilinadi. Masalan, sud jarayonida shaxsning 10 yil oldin maktabda qanday o'qigani o'g'rilik jinoyatiga aloqador emas (agarda bu uning ruhiy-psixologik holatini isbotlash uchun bevosita zarur bo'lmasa). Shuning uchun sud bunday ma'lumotni dalil sifatida rad etadi.

Bundan tashqari dalil faqat qonunda ruxsat berilgan manbalardan va qonuniy usulda olinishi shart. Agarda dalillar tergovda qiynoqqa solish, zo'ravonlik va boshqa shafqatsiz muomala orqali olingan bo'lsa, ular yuridik kuchini yo'qotadi (maqbul emas deb topiladi) va hukmga asos bo'la olmaydi. Bundan tashqari dalil ishonchli bo'lishi kerak, bu — dalilning ob'yektiv haqiqatga qanchalik mos kelishidir. Masalan, guvoh sudda "voqea joyidan uzoqlashayotgan qora rangli mashinani ko'rdim" deb ko'rsatma bersa-yu, ammo sud-kriminalistika ekspertizasi voqea joyida faqat oq rangli avtomobil shinalari izini aniqlasa, guvohning so'zlari ishonchlilik sinovidan o'tmaydi va rad etiladi.

Dalillar tizimining qadimgi shafqatsiz sinovlaridan bugungi sivilizatsiyalashgan huquqiy mezonlargacha bosib o'tgan yo'li inson qadr-qimmatining yuksalishini ko'rsatadi. Amir Temur davridagi axborotni tekshirish prinsiplari bugungi zamonaviy protsessual qonunchiligimiz uchun tarixiy poydevor vazifasini o'taydi. Zamonaviy sudlov tizimida dalillarning aloqadorligi, maqbulligi va ishonchligi talablari har bir fuqaroning huquqlari kafolatlanishini hamda sud xatolarining oldi olinishini ta'minlovchi eng oliy mezonidir.

Bugungi zamonaviy jinoiy-protsessual huquq tizimi har bir tergov harakatining chegaralarini aniq belgilab qo'ydi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi talablariga ko'ra, so'roq qilish harakati endilikda jismoniy tazyiqlardan butunlay xoli bo'lib, uzoq davom etuvchi bosimlarning oldini olish maqsadida qat'iy vaqt cheklovlari ostida hamda erkin bayon yoki dalillarni ko'rsatish kabi psixologik-taktik usullar yordamida amalga oshiriladi.

Agarda ikki shaxsning ko'rsatuvlarida jiddiy qarama-qarshiliklar yuzaga kelsa, protsessual qonun daxlsizligi doirasida yuzlashtirish harakati o'tkazilib, bunda ishtirokchilarning bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri savollar berishi orqali haqiqat qaror toptiriladi. Jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish va guvohlantirish kabi moddiy olam unsurlarini tadqiq etish harakatlari esa voqeaning real manzarasini muhrlashga xizmat qiladi. Hatto inson vafotidan keyin ochilgan yangi holatlar yuzasidan o'lim sabablarini aniqlash zarurati tug'ilganda, prokuror sanksiyasi asosida jasadni qabrdan chiqarib olish, ya'ni ekskumatsiya qilish kabi o'ta jiddiy tergov harakati qo'llaniladi. Mazkur harakatlar davomida olingan har qanday ashyo yoki qurol fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlariga tayanuvchi sud ekspertizasi, masalan ballistik, daktiloskopik yoki biologik tadqiqotlar orqali tekshirilib, eng yuqori isbotlovchi kuchga ega bo'lgan obyektiv dalillar bazasiga aylantiriladi. Shuningdek, tergov eksperimenti orqali guvohlar ko'rsatgan holatlar sun'iy ravishda qayta tiklanib ko'rilsa, tintuv va olib qo'yish harakatlari orqali jinoyat qurollari va yashirilgan buyumlar qonuniy ravishda musodara qilinadi. To'plangan ma'lumotlarning ishonchliligini tahlil qilish maqsadida esa ko'rsatuvlarni aynan hodisa joyida tekshirish hamda gumonlanuvchini o'xshash shaxslar orasidan aniqlashga qaratilgan tanib olish uchun ko'rsatish harakatlaridan unumli foydalaniladi.

Raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi axborot asrida esa sud-tergov tizimida mutlaqo yangi davr islohotlari amalga oshirildi va **an'anaviy dalillar** o'rnini **elektron ma'lumotlar** egallay boshladi.

Milliy qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgarishlarga muvofiq, JPKda raqamli dalillar instituti alohida mustahkamlandi hamda smartfonlar, bulutli servislar va ijtimoiy tarmoqlardagi fayllarning asl elektron shakli mustaqil dalil turi sifatida e'tirof etildi. Raqamli makondagi jinoyat izlarini aniqlash maqsadida kiberforensika va sud-elektron ekspertizalari joriy etildi, kiberhujumlar davomida qoldirilgan IP-manzillar hamda tizimli metama'lumotlarni tahlil qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, sud sanksiyasi asosida telefon so'zlashuvlarini va aloqalarni eshitish mexanizmi yanada takomillashtirildi.

Islohotlarning eng muhim amaliy natijalaridan biri sifatida videokonferensaloqa rejimida masofaviy tergov harakatlarini o'tkazish tartibini aytish joiz, bu orqali tergovchi boshqa hududda yoki davolanishda bo'lgan ishtirokchilarni audio- va videolashtirish texnikasi yordamida masofadan turib so'roq qilish yoki yuzlashtirish imkoniga ega bo'ldi. Shuningdek, inson huquqlarini kafolatlash va dalillarni soxtalashtirish xavfini to'liq yo'q qilish maqsadida, tintuv, olib qo'yish hamda voqea joyini ko'zdan kechirish kabi muhim jarayonlarni majburiy ravishda videoyozuvga olish qoidasi joriy etildi.

Shunday qilib, jinoyat protsessida dalillarni to'plash metodologiyasi qadimgi davrlardagi subyektiv va jismoniy tazyiqlarga asoslangan tizimdan, bugungi kunda inson huquqlari oliy daxlsizligi, taktik aniqlik va yuqori texnologik raqamli innovatsiyalarga tayanuvchi mutlaq qonuniy va shaffof mexanizmga qadar bo'lgan yuksak taraqqiyot bosqichiga erishdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.** –[www.lex.uz](http://www.lex.uz) elektron bazasi.
2. **O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.** –[www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. **Amir Temur. Temur tuzuklari.** (Forschadan Alixonto'ra Sog'unuy va Habibullo Karomatov tarjimasini). – T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2019. – 144b.
4. **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.** BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi. – T.: "Adolat", 2018-y.
5. **Miranda v. Arizona**, 384 U.S. 436 (1966) – AQSH Oliy sudining rasmiy pretsedent hujjati
6. **Rustambayev M.X.** Jinoyat-protsessual huquqi (Darslik). – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021y
7. **Xalilov J.S.** Sud-tergov faoliyatida videokonferensaloqa va masofaviy tergov harakatlarini o'tkazishning protsessual asoslari // Odil sudlov jurnali. – Toshkent, 2022. – №5. – B. 12-17.
8. **Casey E.** Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers, and the Internet. – Academic Press, 2011. – 832 p